



“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” elektron ilmiy jurnali

№ 4 (4), oktabr-dekabr, 2021 yil

TADBIRKORLIK SUB’EKTLARIGA DAVLAT XIZMATLARINI KO’RSATISH VA ONLAYN XIZMATLARDAN FOYDALANISH

Odilov S.O., Xakimov N.S, Xolmurotov R.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kurs magistrantlari



Annotatsiya. Bu maqolada tadbirkorlik sub’ektlarining davlat tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar va boshqa onlayn xizmatlardan qanday qilib samarali foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish o’rganilgan. Olingan natijalar yordamida tadbirkorlikni rivojlantirish haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so’zlar. Davlat xizmatlar portali, yagona darcha, elektron hukumat, tadbirkorlik, onlayn xizmatlar, onlayn savdo, ijtimoiy tarmoq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet.

Kirish

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ko’pgina sohalarida katta o’zgarishlar bo’shlandi jumladan davlat tomonidan tadbirkorlik va ishbilarmonlikning jamiyatdagi tutgan rolini oshirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan keng ko’lamli chora-tadbirlar natijasida ularning jamiyat taraqqiyotiga qo’shadigan hissalar kun sayin ortib bormoqda va iqtisodiyotning muhim ustunlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilayotganini alohida ta’kidlab o’tish joiz.

“Elektron hukumat” tizimi doirasida idoralararo axborot almashinish, o’zaro integratsiyasini ta’minlash, aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini yangicha usulda, axborot texnologiyalarini qo’llagan holda xizmat ko’rsatish hamda bu orqali davlat organlarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish eng

muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Aholining davlat tashkilotlariga murojaatlarini interaktiv tarzda qabul qilish va ko’rib chiqish, elektron murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish orqali vaqt va xarajatlarni tejash, xizmatlarni soddalashtirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmogda. Bu borada taraqqiy topgan xorijiy davlatlar tajribalari o’rganilib, mamlakatimizda aholi va tadbirkorlik sub’ektlari uchun davlat xizmatlarini interaktiv shaklda ko’rsatishni yo’lga qo’yish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida “yagona darcha” tamoyili bo’yicha xizmat ko’rsatadigan Davlat xizmatlari markazlari tashkil etilib, yanada takomillashtirilib borilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko’plab iqtisodiyotlari singari yurtimizda ham yangi ish joylarni tashkil etish va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida qulay tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirish bo’yicha ko’plab ishlar bajarilmoqda. Xususan, 2017 yil 9 fevralda

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2016 yil 28 oktabr-dagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 66-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etildi [1].

Metodologiya

Bu sohada ilmiy bilishning dialektik, tahlil, mantiqiylik, tarixiylik va boshqa usullar va metodlardan foydalandik.

Adabiyotlar sharhi

“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egalashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksaklikning eng qisqa yo‘lidan boorish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarda axborot texnologiyalari chuqur kirishib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor” (Shavkat Mirziyoyev 2020).

Biznesda qaror qabul qilish uchun menejerlarga ma‘lumotlar zarur. Menejment informatsion tizimlari tashkilotda informatsiyalar almashinuvini tartibga soladi. Kompyuter tizimlari va dasturiy ta‘minotlar menejment informatsion tizimlarining asosiy qismlari hisoblanadi (Shaislamova M.R., Gafurova D.R 2016, b.114). Kompaniyada keyingi davr uchun bo‘lim budjetining daromad va xarajatlar haqidagi ma‘lumotlarga kerak bo‘lishi mumkin. Budjetdagi oldingi va kelajakdagi axborot ma‘lumotlar kelajakni belgilashda yordam berish mumkin.


Raqamli texnologik vositalar doimiy rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu kompaniyalarga noyob tarzda rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi (Zysman va boshq,2006). Ushbu jarayonlarda kompaniyalar sodir bo‘layotgan yangi o‘zgarishlardan doimiy ravishda ogoh bo‘lishlari kerak, raqobatbardosh bo‘lish uchun bozor va ularga imkon qadar tezroq munosabatini bildirishi kerak. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) so‘nggi yigirma yil ichida tashkiliy o‘zgarishlarning eng katta omillaridan biridir. (Gillingham, 2015, b.89).

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish jarayonida ushbu bo‘limda ko‘rsatilgan kishilarning fikrlari juda to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Biznesni boshqarish uni rivojlantirish mijozlar bilan aloqa munosabatlari, jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqa ko‘plab imkoniyatlarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari taqdim etishini ko‘rishimiz mumkin. Boshqaruv jarayonida qarorlarni qabul qilishda, ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilishda va boshqa ko‘plab vaziyatlarda ayniqsa juda samarali vosita bo‘lib hisoblanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat biznesda balki iqtisodiyotning barcha sohasida qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarda ko‘plab imkoniyatlar eshigining kalitidir.

Asosiy qism

Estoniya Yevropadagi aksariyat ishlar onlaynda hal qilinadigan raqamli davlatga aylanganiga ancha bo‘ldi. U yerda aholiga ko‘rsa-tiladigan elektron xizmatlar soni 600 dan oshgan, tadbirkorlar uchun esa — 2 400 taga yetkazilgan! Ya’ni Estoniyada kompyuterdan uzoqlashmasdan turib, katta bir kompaniyaga 18 daqiqada asos solish mumkin [2]. Hozirda tadbirkorlik subektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” <https://fo.birdarcha.uz> ishlab chiqilgan bo‘lib, portalda biznesni sodda, qulay va tezkorlik bilan ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta tashkil etish va barcha hujjatlardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish davlat xizmatlar markaziga shaxsan kelgan holda amalga oshirishda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdagi bojlar va yig‘imlar miqdorlarini to‘lash 100% bo‘lsa web portal orqali ushbu to‘lov 90% qilib belgilangan va to‘lovlarni to‘lov tizimlari, bank kassalari va bank-klient orqali to‘lash mumkin. Portal orqali biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Elektron raqamli imzo kerak bo‘ladi. Agar sizda elektron raqamli imzo yo‘q bo‘lsa uni ham internet orqali onlayn olish imkoniyatlari yaratilgan. Keyingi navbatda login bilan parol olish uchun id.gov.uz saytida ro‘yxatdan o‘tish darkor va fo.birdarcha.uz ga kirish uchun id.gov.uz sayti orqali olgan login hamda parolni kiritasiz va tizimga kirish bilan, “Biznesni ro‘yxatga olish” bo‘limiga kirib birma-bir hamma bosqichlardan o‘tasiz.

Biznesni ro'yxatdan o'tkazish 06.03.2022 holatiga ko'ra




1-rasm. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish statistikasi


Bundan tashqari aholi my.gov.uz portalida hozirda mavjud bo'lgan 22 ta soha bo'yicha 308 ta davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Fuqarolar uchun 217 ta tadbirkorlar uchun 218 ta turli xil xizmatlar mavjud. Shulardan 189 tasidan bepul va 119 tasidan pullik foydalanishlari mumkin. Hududlar kesimi bo'yicha Toshkent shahri yetakchilik qilmoqda, 2021-yilda Toshkent shahridan 2.7 mln ariza kelib tushgan (2-rasm). Eng ko'p foydalanilgan xizmat turi tadbirkorlik sohasiga tegishli ya'ni "Yuridik shaxslarning va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobga qo'yilgan ma'lumotlari bilan tanishish" ximati bo'lib kelib tushgan arizalar soni 4.5 mlndan ortiq. Eng faol foydalanuvchilar 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilar tashkil etmoqda(3-rasm). Bularning barchasi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qilina-yotgan ishlar natijalari hisoblanadi. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha

sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir [5].

Mamlakatimizda elektron hukumat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va mavjud imkoniyatlarni keng yoritish, my.gov.uz yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, ulardan foydalanish bo'yicha o'quv darslari o'tib, aholining xabardorlik darajasini oshirish maqsadida, Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi tomonidan "Siz tomon yo'l oldik" loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu loyiha doirasida hududlarda "Elektron xizmatlar" mavzusida treninglar o'tkazilmoqda. Bugungi kunda dunyo tajribasi aholi turmush farovonligini ta'minlash, ular uchun qulayliklar yaratish hamda davlat xizmatlaridan to'siqsiz, shaffof va adolatli foydalanishda eng to'g'ri yondashuv Elektron hukumat ekanligini ko'rsatmoqda.



2-rasm. 2021-yilda davlat xizmatlari markaziga kelib tushgan arizalar hududlar kesimida.



3-rasm. Yosh bo'yicha foydalanuvchilar.

O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 27,2 milliondan oshgan, shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 25,3 million kishini tashkil etmoqda. Bugungi kunga kelib 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan, 54 foiz uy xo'jaliklariga yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan [7]. *Mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish maqsadida mobil internet tezligi 1,5 barobar oshirildi va 2021 yilda 14150 ta qo'shimcha tayanch stansiyalari o'rnatilib, ularning umumiy soni 45890 taga yetkazildi. Albatta bunday yaratilayotgan imkoniyatlardan tadbirkorlarning foydalanishi tadbirkorlik faoliyatini sezilarli daraja o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shunday ekan biznes va tadbirkorlikda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda uning samaradorligini qanday amalga oshirish mumkin? Buni amalga oshirish uchun turli xil onlayn xizmatlardan foydalanish, axborot-texnologiyalari yordamida o'z biznesi tizimlashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Yaqinda faoliyatini boshlagan tadbirkor yoki biznes egalari onlayn xizmatlardan foydalanishni mahsulot yoki xizmatlarini internet orqali reklama qilishdan boshlashi maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy tarmoqlarida o'z sahifalarini yuritish shular jumlasidandir. Qolaversa hozirda onlayn savdo rivojlanayotgan bir vaqtda mahsulotlarini internet orqali butun dunyo bo'ylab sotuvga qo'yib onlayn savdoni yo'lga qo'yishlariga imkoniyat yaratadi. Kichik investitsiyaga ega bo'lgan kompaniyalar paydo bo'lib, tez fursatda o'sib rivojlanishi mumkin. Iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirish, harajatlarni kamaytirishda bugungi kundagi zamonaviy axborot texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini kattadir. Raqamli iqtisodiyotga aloqador o'zgarishlar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar uchun yangi bozor qoidalarini vujudga keltirishiga zamin yaratadi. Buning natijasida biznes egalari yangi raqobat strategiyalarini qidirishi va raqobat samaradorligini oshirishlarini talab qiladi.*

Onlayn savdoning afzalliklari:

Bino yoki savdo majmuasini qurish, ijaraga olish shart emas;

Yaxshi loyiha va mavjud mahsulot bilan qisqa muddatda daromad manbaiga ega bo'lish mumkin;

Hududiy chegaralar yo'q, tuman, viloyat, qo'shni viloyatlar hamda butun Respublika

bo'ylab hatto xorijdan ham mijozlarni topish mumkin;

Kuniga 7/24 rejimida ishlay olish;

Onlayn savdo orqali xaridorlar vaqtining tejilishi va katta assortimentni ko'ra olish muhim rol o'ynaydi;

Ko'p xodimlar ishga shart emas;

Internetdagi mahsulotlar soniga hech qanday chegara yo'q;

Maxsus onlayn xizmatlar yordamida ma'lum hudud uchun savdoni yo'naltirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilganlar — onlayn savdoning asosiy xislatlari. Shuningdek, agar oflaynda do'kon bo'lmasa, uni onlaynda ochish tavakkal qilish darajasini ancha kamaytiradi. Chunki internetda do'kon ochish va yuritishda kam mablag' sarflanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish joizki, mamlakatimizda elektron hukumatning rivojlanishi shaffoflikli ta'minlash bilan bir qatorda aholi va tadbirkorlar uchun ko'plab qulayliklar yaratadi. Ayniqsa tadbirkorlar uchun davlat tomonidan yara-tilayotgan xizmatlar va boshqa onlayn xizmatlar-dan samarali foydalanish tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu xizmatlardan foydalanish natijasida tadbirkorlar birinchi navbatda qimmatli vaqtlarini va ortiqcha xarajatlarni tejaydilar. Tadbirkorlik subektlarini ro'yxatdan o'tkazishni onlayn tarzda amalga oshirish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi va bu uydan chiqmasdan turib tadbirkorlik faoliyatini yuritishning ilk qadamidir.

Biznesni rivojlantirishda birgina reklama qilishni olib qaraydigan bo'lsak biznesda ayniqsa reklamaning o'rnini juda kata ahamiyat kasb etadi. Reklamaning eng samarali vositalari hozirgi kunga kelib axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, reklama bannerlarida va boshqa axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida reklama berish eng samarali vosita bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagilarni biznesda qo'llash orqali xajatlarni kamaytirib, daromadni ko'paytirish, kam kuch sarflab qisqa vaqtda ko'proq natijaga erishish mumkin. Qolaversa onlayn xizmatlardan foydalanib o'z mahsulotlarini yoli xizmatlarini internet orqali sotayotgan tadbirkorlar nafaqat o'z tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda balki mijozlar uchun ham bir qancha qulayliklar yaratadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016 yil 28 oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 66-son qarori, 2017 yil 9 fevral.
2. <https://my.gov.uz/oz/news/746>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-son Farmoni
4. Shaislomava M.R., Gafurova.D.R Biznes boshqaruv asoslari (o'quv-uslubiy majmua) Toshkent-2016 B-63.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4551>
6. YAIDXP portalining tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish moduli. <https://fo.birdarcha.uz>
7. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar> -soni-272-mil-liondan-oshdi